

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG`LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI

Qo'lyozma sifatida

UDK: 616.61: 616.12-008: 616-056-07

Giyosova Nigora Odiljonovna

**Ортиқча тана вазни ва семизлиги бўлган артериал гипертензияли
беморларда буйрак заарланиши эрта ташхисотининг клиник-
лаборатор аспектлари**

Magistrlik akademik darajasi uchun

5A 510 103 "Terapiya"

Ilmiy rahbar:

t.f.n., dots.

K.J.Boltaev

Buxoro - 2019 yil

MUNDARIJA

| | |
|---|----|
| KIRISH | 3 |
| 1-BOB. ADABIYOTLAR SHARHI | 8 |
| 1.1. Gipertonik nefropatiya va semizlik epidemiologiyasiga zamonaviy yondashuv | |
| 1.2. Buyrak faoliyatini baholash..... | 19 |
| 2-BOB. TADQIQOT MATERIALLARI VA USULLARI. | 24 |
| 2.1. Tadqiqot materiallari | 24 |
| 2.2.Tadqiqot usullari | 25 |
| 3-BOB. TURLI XIL OG`IRLIK DARAJASIDAGI ARTERIAL GIPERTONIYALI BEMORLARDA BUYRAKLAR KLINIKO-FUNKSIONAL HOLATI KO`RSATKICHLARI..... | 32 |
| 4-BOB. ORTIQCHA TANA VAZNI VA SEMIZLIK QO`SHILIB KELGAN ARTERIAL GIPERTENZIYALI BEMORLARDA BUYRAK ZARARLANISHINING O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI..... | 39 |
| 5-BOB. ORTIQCHA TANA VAZNI VA SEMIZLIGI MAVJUD BO`LGAN AG LI BEMORLARDA BUYRAK ZARARLANISHI ERTA BIOMARKYORLARINING DIAGNOSTIK AHAMIYATI..... | 43 |
| XULOSA | 49 |
| ADABIYOTLAR RO`YXATI | 50 |
| ILOVA | 60 |

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi. Bugungi kunda, arterial gipertenziya (AG) semizlik bilan birgalikda kattalar populyatsiyasida buyrak funktsiyasi buzilishining sabablari orasida yetakchi o'rinni egallaydi. ЭССЕ-РФ tadqiqoti natijalariga ko`ra arterial gipertenziyalı bemorlar orasida surunkali buyrak kasalliklari (SBK) tarqalishi 36,6% ni tashkil etadi. Semizlik qo`shilganda bu jarayon 1,21 ortadi. [Ощепкова Е.В., Долгушева Ю.А., Жернакова Ю.В., Чазова И.Е., и др. Распространенность нарушения функции почек при артериальной гипертонии (по данным эпидемиологического исследования ЭССЕ-РФ). Системные Гипертензии. 2015;12(3):19-24; Миронова С.А., Звартая Н.Э., Конради А.О. Поражение почек при артериальной гипертензии: можем ли мы доверять старым маркерам? Артериальная гипертензия. 2016;22(6):536-50.]

Semizlik yog' to'qimalari va adipokinlarning gormonal faolligi tufayli buyrak gemodinamikasida sezilarli o'zgarishlarni keltirib chiqaradi . Gipertoniya, semizlik, insulin rezistentlik, yallig'lanish reaksiyalar va buyrak zararlanishi bilan aloqador Adipokinlar orasida leptin, resistin va visfatin ahamiyatli hisoblanadi. Adekvat antigipertenziv terapiyani tana vazni kamayishi bilan birga olib borilganda insulin rezistentlik, metabolik ko`rsatkichlar va buyrak funksiyasi yaxshilanishi isbotlanganligi haqida ma'lumotlar mavjud [Xiao N., Devarajan P., Inge TH., et al. Subclinical kidney injury before and 1 year after bariatric surgery among adolescents with severe obesity. Obesity (Silver Spring). 2015;23(6):1234-8. Jenkins DJ.A., Boucher D.F., Ashbury F.D. et al. Effect of Current Dietary Recommendations on Weight Loss and Cardiovascular Risk Factors. J Am Coll Cardiol. 2017; 69(9):1103-12.]

Hozirgi kunda semizlik eng keng tarqalgan surunkali kasalliklardan biridir. Rivojlangan mamlakatlarda kattalar populyatsiyasining 20-30 foizini semizlik tashkil etadi. Dunyo bo'ylab semizlikning keng tarqalishi sharoitida,

ko'plab tadqiqotchilar semizlik bilan bog'liq glomerulopatiyaning kuchayib borishiga e'tibor qaratmoqdalar. Current Opinionin Nephrology&Hypertension ma'lumotlariga ko'ra, bir qator epidemiologik tadqiqotlar semizlik sog'lom populyatsiyada proteinuriya va buyrak kasalliklari terminal bosqichi rivojlanishi uchun muhim xavf omili ekanligini tasdiqladi.

Arterial gipertenziya muammosining dolzarbligi va ijtimoiy-tibbiy ahamiyati juda katta. Epidemiologik tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, arterial gipertenziya kattalar orasida keng tarqalgan. O'zbekistonda qon bosimining ko'tarilishi butun aholining 13-15% va 40-59 yosh guruhida 26,6% ni tashkil etdi. Hozirgi vaqtda iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda aholining 20-30 foizi arterial gipertenziya bilan kasallangan. Rossiya Federatsiyasida arterial gipertenziya (AG) erkaklarning 39 foizida va ayollarning 40 foizida kuzatiladi.

Buyrak patologiyasi va arterial gipertenziya o'rtasidagi aloqadorlik juda murakkab. Bir tomondan, arterial gipertenziya buyrak kasalligining alomati va nefrosklerozning natijasi, boshqa tomondan, arterial gipertenziyaning o'zi buyrak disfunktsiyasining sababidir.

Semizlik arterial gipertenziya bilan birgalikda, o'z navbatida, buyrak kasalliklari rivojlanishi va jadallahuvini ezlashtiradi.

Mamlakatimizda aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy yordam va tibbiy xizmat sifatini yaxshilash, shu jumladan surunkali yuqumli bo'lмаган kasalliklarni tashxislash va davolashning yangi optimal darajasiga o'tish bo'yicha maqsadli chora-tadbirlar ko'rilmoxda; Bu yo`nalishda quyidagi vazifalar belgilab berilgan: "... mamlakat aholisiga tibbiy yordamning samaradorligi, sifati va ulardan foydalanish imkoniyatlarini oshirish, sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va kasalliklarning oldini olish, shu jumladan tibbiy standartlashtirish tizimini shakllantirish, tashxis qo'yish va davolashning yuqori texnologiyalarini joriy etish ...".

Ushbu dissertatsiya ma'lum darajada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagи "2017-2021 yillarda O'zbekiston

Respublikasini yanada rivojlantirish strategiyasi to'g'risida" gi 4947-sonli PF va 2018 yil 18 dekabrdagi "Yuqumli bo'limgan kasalliklarning oldini olish, sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va aholining jismoniy faoliyat darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 4063-sonli Prezident Farmonlari shuningdek, ushbu sohada qabul qilingan boshqa me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarga javob beradi.

Tadqiqot obyekti va predmeti :

Tadqiqot doirasiga 30 yoshdan oshgan 87 nafar bemor kiritildi. Bemorlar Buxoro viloyat ko`p tarmoqli tibbiyot markazi kardiologiya va nefrologiya bo`limlarida davolanayotgan va Buxoro viloyat ko`p tarmoqli tibbiyot markazi poliklinikasi shuningdek, "Ulug`bek Ultra med" xususiy klinikasiga murojaat qilganlar orasidan tanlandi.

Tadqiqot davomida tibbiy hujjatlar va anamnez ma'lumotlari tahlili, laborator va instrumental tekshiruvlarning skrining usullari o'tkazildi. Buyrak yetishmovchiligi darajasi nefrologik assotsiatsiyalar va "EOAГ/EOK 2007 tavsiyalar" tomonidan ishlab chiqilgan MDRD va CKD - EPI formulalari yordamida aniqlandi.

Tadqiqot maqsadi:

Ortiqcha tana vazni va semizligi bo`lgan arterial gipertenziyali bemorlarda buyrak kasalliklari erta diagnostikasini optimallashtirish. Surunkali buyrak kasalliklari erta tashxisot markyorlarining samaradorligini baholash.

Tadqiqot vazifalari:

- Gipertenziyiv nefropatiyaning paydo bo'lish chastotasini yoshga, jinsga va tana massasi indeksiga qarab aniqlash;
- Ortiqcha vazni va semizligi mavjud bo`lgan arterial gipertenziyali bemorlarda buyrak funktsiyasining laboratoriyl ko'rsatkichlari, qondagi lipid spektri va tana massasi indeksi ko'rsatkichlarining o'zaro bog'liqligini o'rganish;

- Buyrak funksiyasi ko'rsatkichlari (mikroalbominuriya, koptokchalar filtratsiya tezligi, qondagi kreatinin miqdori), qon bosimi va antropometrik parametrlar dinamikasini baholash;

Tadqiqotning ilmiy yangiligi :

Semizligi va ortiqcha tana vazni bo`lgan arterial gipertenziyalı bemonlarda dastlabki bosqichlarda buyrak shikastlanishining rivojlanishi bilan o'zaro bog'liqlik borligi aniqlandi.

Ortiqcha tana vazni va abdominal semizligi bor bo`lgan bemonlarda buyrak filtratsion funksiyasini baholovchi KFT qondagi kreatinin miqdoridan foydalanib hisoblashning diagnostik ahamiyati pasayganligi aniqlandi;

Buyraklar disfunksiyasini baholovchi qon markyorlariga nisbatan surunkali buyrak kasalliklarini erta bosqichlarda aniqlashda siydikdagi diagnostik markyorlarning ustunligi, ularni qon markerlari bilan taqqoslash va buyrak funksiyalarini baholash orqali isbotlandi.

Muammoni o`rganilganlik darajasi :

So'nggi yillarda turli xil buyrak kasalliklariga chalingan bemonlarda buyrak yetishmovchiligining rivojlanish darajasi arterial gipertenziya darajasiga bog'liq ekanligi haqida dalillar olingan.

So'nggi yillarda tadqiqotchilar tomonidan qon bosimining o'zgaruvchanligini o'rganishga ko'proq e'tibor berilmoqda. Shu bilan birga, tadqiqot mavzusidagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, qon bosimi oshishining buyrak funksiyasiga ta'siri hozircha yetarlicha o`zganilmagan. Ilmiy ma'lumotlar bazalarida arterial gipertenziya bilan og'rigan bemonlarda qon bosimining qisqa muddatli o'zgaruvchanlik xususiyatlari va turlari haqida deyarli hech qanday ma'lumot yo'q. Qon bosimi oshgan va normal bo'lgan bemonlarda koptokchalar filtratsiya tezligining qiyosiy bahosi o'tkazilmagan. Qon bosimining oshishi bo'lgan

bemorlarda buyrak funktsiyasining buzilishiga olib keladigan xavf omillari tahlil qilinmagan.

Ilmiy adabiyotlar va tadqiqotlar natijalari mamlakatimiz aholisi orasida gipertenziv nefropatiyaning yetarlicha darajada ko`p rivojlanganligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati :

Tadqiqot natijalarining nazariy ahamiyati gipertonik nefropatiyaning yosh, jins va tana massasi indeksi qarab uchrash chastotasini aniqlash va ortiqcha tana vazni va semizligi mavjud bo`lgan arterial gipertoniiali bemorlarda tana vazni indeksi, qondagi lipid spektri va buyrak funksiyasi laborator ko`rsatkichlari orasida bog`liqliknki o`rganishdan iborat.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati ortiqcha tana vazni va semizligi mavjud arterial gipertoniiali bemorlarda surunkali buyrak kasalliklari rivojlanishida erta diagnostikasini optimallashtirishdan iborat. Tadqiqot natijalari 2 ilmiy konferensiyada xususan, 1 respublika va 1 xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda o`qildi va natijalar muhokama qilindi. Dissertatsiya mavzusi yuzasidan O`zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan junallarda 2 ta ilmiy maqola va 1 ta tezis nashr etildi.

Dissertatsiyaning tuzilishi va ko'lami:

Dissertatsiya kirish, oltita bob, xotima, xulosa, amaliy tavsiyalar va adabiyotlar ro`yxati iborat. Dissertatsiyaning hajmi 93 betni tashkil atdi.

I BOB. ADABIYOTLAR SHARHI.

1.1. GIPERTONIK NEFROPATIYA VA SEMIZLIK EPIDEMIOLOGIYASIGA ZAMONAVIY YONDASHUV

Surunkali buyrak yetishmovchiligi (SBY) - bu turli xil kasalliklarning oqibati bo'lgan (kelib chiqishi buyrak bilan aloqador yoki boshqa organ kasalliklarining asorati) va asosiy kasallikning prognozini belgilaydigan sindromo-kompleks. Surunkali buyrak yetishmovchiligini erta tashxislashni yaxshilash va ushbu patologiyaning salbiy oqibatlari va rivojlanishiga olib keladigan xavf omillarini aniqlash va shu asosda ixtisoslashgan yordamni tashkil etish zarur. Barcha ixtisoslik shifokorlarining sa'y-harakatlarini birlashtirish, optimallashtirish maqsadida xalqaro nefrologik hamjamiyat SBY atamasi bilan birga koptokchalar filtratsiya tezligini (KFT) hisoblashga asoslangan surunkali buyrak kasalliklari (SBK) yangi tasnifini qabul qildi. [Вестник АГИУВ №1, 2016., Ю.А.Ким., Клинические аспекты течения хронической болезни почек у пациентов с артериальной гипертензией., 6 стр.]

SBK ta`rifiga ko'ra, SBK deganda "tashxisdan qat'i nazar, uch oy yoki undan ko'p vaqt ichida buyrak shikastlanishi yoki buyrak funktsiyasi darajasining pasayishi" tushuniladi. SBK tashxisot mezonlari juda oddiy va quyidagilarni o'z ichiga oladi: 1) Laborator va vizual tekshiruv usullaridan foydalanilganda buyraklarda funksiyasi o`zgarishi belgilari mavjudligi; 2) buyrak shikastlanishining boshqa belgilari bor yoki yo'qligidan qat'iy nazar uch yoki undan ko'p vaqt davomida koptokchalar filtratsiya tezligining (KFT) $< 60 \text{ ml / min} / 1,73 \text{ m}^2$ ga kamayishi. 1-jadval. [Артериальная гипертензия Том 12 № 3 2006., “Проблема хронической болезни почек в современной медицине”., А.В.Смирнов, В.А.Добронравов, И.Г.Каюков., стр 185-186.]

1-jadval

SURUNKALI BUYRAK KASALLIKLARINING KLASSIFIKATSİYASI

| Bosqich | Xususiyati | KFT (ml / min) | Tavsiya etilgan tadbirlar |
|---------|------------|----------------|---------------------------|
|---------|------------|----------------|---------------------------|

| | | | |
|-----|---|---------------------------|---|
| | | min / 1.73 m2) | |
| - | SBK xavfining oshishi | ≥ 90 | Doimiy SBK tekshiruvi, xavfni kamaytirish choralari |
| I | Buyrak shikastlanishi, KFT normada yoki oshgan | ≥ 90 | + Yurak-qon tomir asoratlarini rivojlanish xavfini kamaytirish uchun tashxis qo'yish va asosiy kasallikni davolash |
| II | KTF ning o'rtacha pasayishi bilan buyrakning shikastlanishi | 60-89 | + Rivojlanish tezligini baholash |
| III | KFT pasayishining o'rtacha darajasi | 30-59 | + Asoratlarni aniqlash va davolash |
| IV | KFT ning yaqqol pasayishi | 15-29 | + O`rin bosuvchi buyrak terapiyasiga tayyorgarlik |
| V | Buyrak yetishmovchiligi | < 15 Yoki O`BT | + O`rin bosuvchi buyrak terapiyasi (agar asoratlar bo'lsa) |

So'nggi o'n yillar davomida chet el olimlari tomonidan o'tkazilgan SBK epidemiologik tadqiqotlari tahlili shuni ko'rsatdiki, terminal SBY ning tarqalishi o'rtacha 1 million aholiga o'rtacha 50-60 bemorni tashkil etadi. Surunkali buyrak yetishmovchiligining asosiy sabablari surunkali glomerulonefrit, diabetik nefropatiya, surunkali piyelonefrit hisoblanadi. Turli mualliflarning ta'kidlashicha,

uremiyadan vafot etgan barcha bemorlarning 30-70% i faol davolash usullariga muhtoj bo`lgan bemorlardir.

Coresh ma`lumotlariga ko`ra, AQSh katta yoshli aholisining 10-13% i turli bosqichdagи surunkali buyrak kasalliklaridan aziyat chekmoqda. [Вестник АГИУВ №1, 2016., Ю.А.Ким., Клинические аспекты течения хронической болезни почек у пациентов с артериальной гипертензией., 7 стр.]

1.2 Semizlik epidemiologiyasi

Semizlik yer yuzida eng keng tarqalgan kasalliklardan biridir. JSST ma'lumotlariga ko'ra , sayyoramiz aholisining 30 foizdan ortig'i ortiqcha tana vazniga ega . [И.И.Дедов, Г.А.Мельниченко, В.В.Фадеев., Эндокринология., 14.2. Ожирение., 2000 г., 598-599.]

So'nggi uch o'n yillikda ortiqcha tana vazni va semizlikka ega bo`lganlar ulushi erkaklar orasida 28,8% dan 36,9% ga va ayollar orasida 29,8% dan 38,0% ga oshdi. Dunyo bo'ylab semizlik epidemiyasi katta ijtimoiy-iqtisodiy va tibbiy oqibatlarga ega.

Buyraklar ham semizlikning zararli ta'siridan aziyat chekishi mumkin. Surunkali buyrak kasalligi (SBK) bo`lgan bemorlarning 14-30% ida, semizlik muhim patogenetik rol o'ynashi taxmin qilinmoqda. [The fatty kidney: Obesity and renal disease. Manuel Praga, Enrique Morales. Nephron 2017;136:273-276.]

Framingham tadqiqotlari shuni ko`rsatdiki, 1988 yildan 2004 yilgacha semizlik tufayli buyrak zararlanishi semizlik ortishi bilan SBK har bir bosqichi o`rtacha 50 % ga ortdi. [Overweight, obesity and the development of stage 3 CKD: the Framingham Heart study. M.C.Foster, S.J.Hwang, M.G.Larson, J.H.Litchman et al. Am J Kidney Dis. 2008; 52 (1): 39-48]

Arterial gipertenziya yurak-qon tomir va buyrak kasalliklari rivojlanishining asosiy xavf omilidir. Boshqa tomondan, surunkali buyrak kasalligi ikkilamchi arterial gipertenziyaning eng keng tarqalgan shakli bo'lib, ba'zi tadqiqotlar shuni ko`rsatdiki, ushbu patologiya yurak-qon tomir kasalliklari rivojlanishi uchun

mustaqil xavf omilidir va o'limning keng tarqalgan sababi hisoblanadi. [Вестник АГИУВ №1, 2016., Ю.А.Ким., Клинические аспекты течения хронической болезни почек у пациентов с артериальной гипертензией., 6 стр.]

AQShda 3 ta katta yoshli aholiga 1 ta arterial gipertenziya to`g`ri keladi. Gipertenziyaning tarqalishi SBK hamroh bo`lgan bemorlarda yuqori, adekvat terapiya o`tkazilmaganda asta-sekin buyrak zararlanishi yanada rivojlanishiga olib keladi. AQShda kattalar orasida o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra , arterial gipertenziya 23,3% aholida surunkali buyrak kasalliklarisiz, 35,5 % aholida SBK 1-bosqichi bilan, 48,1% aholida SBK 2-bosqichi bilan, 59,9% aholida SBK 3-bosqichi bilan va 84.1% aholida SBK 4-bosqichi bilan birga tarqalgan. [Вестник АГИУВ №1, 2016., Ю.А.Ким., Клинические аспекты течения хронической болезни почек у пациентов с артериальной гипертензией., 7 стр.]

Muayyan populyatsiya orasida surunkali buyrak kasalligi rivojlanishi va progressivlanishiga bir qator omillar ta`sir etishi mumkin. Bularga ma'lum infektsiyalarning tarqalishi, bir qator dori-darmonlarni qabul qilish, spirtli ichimliklar va chekish, atrof-muhit, iqlim, ovqatlanishning tabiatini va rejimi, aholining irsiy xususiyatlari va boshqalar kiradi. Ammo eng qiziq tomoni shundaki, buyrak disfunktsiyasining rivojlanishi bilan bog'liq ko'plab omillar bir vaqtning o`zida yurak-qon tomir xavfinining "an'anaviy" omillari hisoblanadi, arterial gipertenziya (AG), qandli diabet (QD), erkak jinsi, dislipidemiya, semizlik, metabolik sindrom va tamaki chekish shular jumlasidandir.

Hozirgi kunda arterial gipertenziya (AG) surubkali buyrak kasalliklari paydo bo`lishi va rivojlanishi mexanizmida eng muhim xavf omillaridan biri ekanligi shubhasizdir. Ammo, faqatgina og`ir, nazorat qilib bo`lmaydigan arterial gipertenziya glomeruloskleroz rivojlanishiga va buyrak yetishmovchiligidan bemorlarning o'limiga olib kelishi mumkin deb hisoblangan. Yaqinda o'tkazilgan keng ko'lamli HOT (Hypertension Optimal Treatment Study) va INSIGHT

(Intervention as a goal in Hypertension Treatment) tadqiqotlari shuni ko`rsatdiki, buyrak funktsiyasining o`rtacha pasayishi (kreatinin klirensi < 60 ml / min , bu SBK III bosqichiga to'g'ri keladi) adekvat boshqariladigan essensial gipertenziyali bemorlarda 13-30% hollarda qayd etildi. Hatto "normaning yuqori chegarasidagi qon bosimi" ham SBK rivojlanishi uchun yuqori xavf omili hisoblanadi. Shu sababli, AQShda AG bilan bog'liq terminal buyrak yetishmovchiligi (TBY) o`rin bosuvchi buyrak terapiyasi boshlanishining chastotasi bo`yicha ikkinchi o`rindagi sababidir va bunday holatlar 1990 yildan 2001 yilgacha 50% ga o`sdi.

Umuman olganda, so'nggi uch o'n yillikda qandli diabet va arterial gipertenziya fonida TBY bilan kasallanishning doimiy o'sishi dializ va buyrak transplantatsiyasi o`tkazgan bemorlarning etiologik tuzilmasida keskin o'zgarishlarga olib kelganini ta'kidlash joiz. [Артериальная гипертензия Том 12 № 3 2006., “Проблема хронической болезни почек в современной медицине”., А.В.Смирнов, В.А.Добронравов, И.Г.Каюков., стр 187-188].

Arterial gipertenziyada yurak va miya qon tomirlari bilan bir qatorda buyraklar ham ko'pincha zararlanadi. Amerika Qo'shma Shtatlarida terminal buyrak yetishmovchiligi rivojlanishining sabablari ro'yxatida arterial gipertenziya qandli diabetdan keyin ikkinchi o'rinda turadi . Har yili Amerika Qo'shma Shtatlarida qon bosimi ko'tarilishi sababli terminal buyrak yetishmovchiligi rivojlanishining 30 mingga yaqin yangi holatlari kuzatilmogda . Rossiya Federatsiyasida arterial gipertenziya terminal buyrak yetishmovchiligining sabablari tarkibida oltinchi o'rinni egallaydi va o`rin bosuvchi buyrak terapiyasini olgan bemorlar umumiyl sonining 3,8 foizini tashkil qiladi. [Нефрология. 2013. Том 17. №5. А.А. Галушкин, М.М. Батюшин, В.П. Терентьев, Ю.Ю. Горблянски., Комплексная оценка сердечно-сосудистых факторов риска, как инструмент прогнозирования развития хронической болезни почек. 50 стр.]

Shuni ta'kidlash kerakki, arterial gipertenziya bilan og'igan bemorlarda gipertoniq nefropatiya (GN) rivojlanish xavfi kichikroq yoshdan boshlanadi. Shunday qilib, 30 yoshda arterial gipertenziya rivojlanish GN rivojlanish xavfi 35,4% ni, 70 yoshdagi gipertenziya rivojlanishida bu ko'rsatkich 10% ni tashkil qiladi.

GN rivojlanishiga ta'sir etuvchi eng kuchli xavf omillaridan biri gipertenziyaning sistolik qon bosimi bo'yicha foiz epizodlari (FE. SQB) ko'rsatgichi hisoblanadi. GN rivojlanish xavfi SQB bo'yicha foiz epizodlari yuqori bo'lgan bemorlarda 34,4% ni tashkil etdi va bu normal ko'rsatkichga ega bo'lgan bemorlar bilan solishtirilganda yetarli darajada yuqoridir (17,8%).

Metabolik sindrom (MS) GN rivojlanishining mustaqil xavf omilidir. Metabolik sindrom mavjud bo'lgan bemorlarda GN uchrasch chastotasi arterial gipertenziyaning MS siz kechganiga qaraganda ancha yuqori : mos ravishda 35,2 va 16,7%. MS ning qo'shimcha mezonlari soniga qarab, GN rivojlanish xavfi sezilarli darajada oshadi . [Нефрология. 2013. Том 17. №5. Комплексная оценка сердечно-сосудистых факторов риска, как инструмент прогнозирования развития хронической болезни почек. 51 стр.]

Arterial qon bosimi oshishi doirasida buyrak zararlanishi mexanizmidaquyidagi potentsial modifitsirlanuvchi xavf omillari, muhim rol o'ynaydi: lipid metabolizmi (umumiy xolesterin (UX), PZLP, YuZLP kamayishi), uglevodlar almashinuvining buzilishi (glyukoza miqdori oshishi), semizlik (TVI oshishi, bel aylanasi, bel aylanasi / bo'ksa aylanasi), simpatik asab tizimining faollashishi (yurak urishi tezligi) va yuqori qon bosimining ta'siri.

SBK paydo bo'lishiga nafaqat yurak-qon tomir tizimi xavf omillari , balki buyrak funktsiyasining pasayishi yurak-qon tomir tizimi shikastlanish darajasining oshishiga, asoratlar rivojlanishiga (miokard infarkti va insult) ham olib keladi, bu esa buyrak funktsiyasining progressiv pasayishiga olib keladi. Bularning barchasi bir-biriga ta'sir etuvchi buyrak va yurak-qon

tomir tizimi xavf omillari va holatlarni o`z ichiga oladigan kardiorenal kontinuum - patofiziologik "regulyar" doirani shakllantiradi. [Нефрология. 2013. Том 17. №5. Комплексная оценка сердечно-сосудистых факторов риска, как инструмент прогнозирования развития хронической болезни почек. 53 стр.]

Yilda so'nggi yillarda, populyatsiya orasida semizlik terminal buyrak yetishmovchiligi rivojlanishini bashorat qilish uchun mustaqil xavf omili sifatida tan olindi. Bundan tashqari, semizlik, ayniqsa u gipertenziya bilan qo'shib kelgan bo`lsa, SBK ning ilk bosqichlarini aniqlash ehtimolini oshiradi. Ko'p sonli eksperimental tadqiqotlarning ma'lumotlari semizlikda glomerulosklerozning rivojlanishini nefronda giperfiltratsiya bilan bog'laydi. Ehtimol, bu tadqiqotlarda aniqlangan tana massasi indeksi va KFT o'rtasida to`g`ri korellyatsion bog`liqlik mavjudligi bilan tushuntiriladi. Boshqa tomondan, tana vaznining pasayishi KFT normallashishiga olib keladi. [Артериальная гипертензия Том 12 № 3 2006., "Проблема хронической болезни почек в современной медицине", А.В.Смирнов, В.А.Добронравов, И.Г.Каюков., стр 188].

Semizlik umumiyligi populyatsiyada surunkali buyrak kasalliklari uchun eh muhim xavf omillaridan biridir [Мухин Н.А., Сагинова Е.А., Фомин В.В. и др. Эндотелиальная дисфункция и поражение почек при ожирении. Вестник РАМН 2006, 12, 25-31]. Y. Vang va boshq. [Noori N., Hosseinpah F., Nasiri A.A., Azizi F. Comparison of overall obesity and abdominal adiposity in predicting chronic kidney disease incidence among adults. J. Ren. Nutr., 2009, 19 (3), 228-237.] 1980 yildan 2006 yilgacha nashr etilgan 47 ta tadqiqotning meta-tahlili shuni ko'rsatdiki , ortiqcha vaznli odamlarda (tana massasi indeksi 25 dan 30 kg / m² gacha) surunkali buyrak kasalliklari xavfi 1,4 baravar va semiz bemorlarda (tana massasi indeksi > 30 kg / m²) - 1,83 martaga oshadi. Ayollarda semizlik bilan bog'liq surunkali buyrak kasalliklarining rivojlanish xavfi erkaklarga qaraganda yuqori (mos ravishda 1,92 va 1,49). Olingan ma'lumotlarga ko'ra, erkaklarda surunkali buyrak kasalliklari holatlarining 13,8% i va ayollarda 24,9% holatlari to'g'ridan-to'g'ri semizlik tufayli yuzaga keladi. Umumiyligi populyatsiyada surunkali

buyrak kasalliklarining eng muhim belgilaridan biri bu bel aylanasi bo`lib, [Noori N., Hosseinpanah F., Nasiri A.A., Azizi F. Comparison of overall obesity and abdominal adiposity in predicting chronic kidney disease incidence among adults. *J. Ren. Nutr.*, 2009, 19 (3), 228-237], uning ortishi abdominal semizlikdan dalolat beradi [Чазова И.Е., Мычка В.Б. Метаболический синдром. М., Media Medica, 2004]. Atherosclerosis Risk in The Communities и Cardiovascular Health Study tadqiqtiga kiritilgan populyatsiyalarning umumiy tahlilida aniqlanishicha [Elsayed E., Sarnak M., Tighiouart H. et al. Waist-to-hip ratio, body mass index, and subsequent kidney disease and death. *Am. J. Kidney Dis.*, 2008, 52 (1), 29-38.], bel aylanasining 1 standart og'ishga ortishi surunkali buyrak kasalliklari III-V bosqichlari rivojlanish xavfini 22% ga orttiradi. Odatiy abdominal semizlik, semizlikning “erkaklaga xos” versiyasi bo`lib, u ayniqsa nishon organlarga, shu jumladan buyraklarga zarar yetkazish nuqtai nazaridan xavfli hisoblanadi. Shu bilan birga epidemiologik tadqiqtolar natijalariga asoslanib [Шальнова С.А., Дееев А.Д. *Масса тела у мужчин и женщин (результаты обследования российской национальной представительной выборки населения). Кардиоваскулярная терапия и профилактика* 2008, 7 (6), 60-63.], ayollarda abdominal semizlik tarqalishining keskin o'sib borishi, surunkali buyrak kasalliklari chastotasining sezilarli darajada ko'payishini taxmin qilishimizga imkon beradi.

Hozirgi paytda semizlik tufayli buyrak shikastlanishining rivojlanish patogenezi organ shikastlanishida ishtirok etadigan bir qator jarayonlarning o'zaro ta'siri sifatida namoyon bo'ladi. Yog' to'qimasining haddan tashqari ko'payishi qo'zg'atuvchi sabab sifatida qaraladi, buyrak patologiyasining shakllanishi va rivojlanishi esa qo'zg'atuvchi sabab va buyrak disfunktsiyasining rivojlanishidagi turli omillar o'rtasidagi o'zarokaskad ta'sir natijasidir.

Semizlikda buyrak shikastlanish mexanizmini tushuntirib beradigan bir nechta farazlar mavjud. Ular orasida:

- Yog'li to'qimasi gormonlari va tsitokinlarining auto- va parakrin ta'siri;

- koptokchalar ichi gipertenziyasi shakllanishi bilan nisbiy oligonefroniyaning roli;
- Tizimli gemodinamikaning buzilishi, insulinrezistentlik va dislipidemiyatasi.

Yaqinda o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, yog' to'qimasi auto-, para- va endokrin funktsiyaga ega - uning hujayralari ko'p miqdordagi biologik faol moddalarni (leptin, o'simta nekrozi faktor-a, angiotensin II, plazminogen 1 aktivator ingibitor) ishlab chiqaradi, bu esa semizlik asoratlari rivojlanishiga olib keladi. Visseral yog' to'qimasi juda kuchli innervatsiyalangan, ko`plab kapillyarlar to`riga ega va portal tomir tizimi bilan bevosita aloqa qiladi. Shunday qilib, yog' to'qimalarining hujayralari tomonidan ishlab chiqarilgan biologik faol moddalar - adipotsitlar nafaqat mahalliy, balki organizmga tizimli ta'sir ko'rsatishga qodir.

Leptin - peptid tabiatiga ega bo`lgan gormon - adipotsitlar tomonidan yog' to'qimalarining massasiga mutanosib ravishda sintez qilinadi. Leptin, to'yish markaziga (gipotalamusning ventromedial yadrosi) ta'sir qilish orqali tananing ovqatga bo`lgan ehtiyojni kamaytiradi. So'nggi izlanishlarga ko'ra, leptin to'qimalarga lipidlarning ektopik birikishidan (lipotoksikoz) himoya qilish orqali yog' kislotasi gomeostazini tartibga soladi.

Buyrakda leptin retseptorlari naychali epiteliy hujayralarida joylashgan. Ushbu retseptorlar qon bosimi va K⁺ chiqarilishini o'zgartirmasdan diurez va natriyurez uchun javobgardir. So'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, semizlikda leptin buyrak to'qimasida fibrogenezni keltirib chiqaruvchi mezangial hujayralarda kollagen I tipi hosil bo'lishiga turtki beradi, endotelioitsitlar va tomir silliq muskullari hujayralari proliferatsiyasini rag'batlantiradi, bilvosita glomerulyar giperstrofiyani keltirib chiqarishi mumkin. Tana vazni normada bo`lgan kalamush endotelial hujayralari ekmasida rekombinant leptinning uzoq muddatli infuziyasi mRNA transformatsiyalovchi o'sish omili – β_1 oshishini rag'batlantirdi, uning sekretsiyasi va IV tip kollagen sintezi, fokal glomeruloskleroz va proteinuriya shakllanishi bilan birga kechdi. Giperleptinemiyada glomerulyar endoteliositlar kislorod

radikallari va peroksidlar bilan zararlanishi oksidativ stress hisobiga oshadi. [Ожирение и метаболизм I`2006., Ожирение и почки: механизмы повреждения почек при ожирении., Е.Ю.Федорова, Е.А.Краснова, М.В.Шестакова., стр.22-23.]

O'sma nekroz omil - α (FNO- α) – vitseral yog` to`qimasi adipotsitlarida yaqqol hosil bo`luvchi oqsil. FNO- α buyraklarning mezengial hujayralarida endotelin-1 hosil bo'lishini rag'batlantiradi [Diamond J. Focal and segmental glomerulosclerosis: analogies to atherosclerosis. Kidney Int 2008; 33:917-824], buyraklarda proliferativ va sklerotik jarayonlarning faollashuvida va tomir tonusini tartibga solishda ishtirok etadi. [Saxena A.K., Chopra R. Renal risk of an emerging “Emidemic” of obesity: the role of adipocyte-derived Factors. Dialysis and Transplantation 2014; 33: 11-20.]

Semizlikda FNO- α plazminogen 1 aktivatori ingibitori (IAP-1) sintezini faollashtirishda yetakchi rol o'ynaydi. Prokoagulyant va fibrinolizning ingibitori sifatida IAP-1 semizlik mavjud bo`lgan bemorlarning trombotik va tromboembolik asoratlarga moyilligini oshiradi. Bundan tashqari, u endotelial disfunktsiya paydo bo`lishi va nefroskleroz rivojlanishida ishtirok etadi. [Ожирение и метаболизм I`2006., Ожирение и почки: механизмы повреждения почек при ожирении., Е.Ю.Федорова, Е.А.Краснова, М.В.Шестакова., стр.23-24]

Angiotenzinogen va angiotenzin II. Vitseral yog' to`qimasi angiotenzinogen sintezlaydi va ishlab chiqaradi, u mahalliy ishlab chiqariluvchi renin va angiotenzinga aylantiruvchi fermanit ta'sirida angiotenzin II (AT II) ga aylanadi. Ushbu gormon intrarenal gemodinamikani tartibga solishda yetakchi omil hisoblanadi: asosan eferent arteriolalarning spazmini keltirib chiqarib, AT II koptokchalar ichi bosimining oshishiga va buyrak transkapilyar bosimi gradientining oshishiga olib keladi. Boshqa tomondan, yog' to`qimalarining ko'payishi bilan endotelial hujayralar tomonidan FNO- α sekretsiyalanishini kamaytiradigan yagona himoya omili - adiponektinning sintezi va sekretsiyasi pasayadi. [Русский медицинский журнал Бутрова С.А. Дзгоева

Ф.Х. Висцеральное ожирение – ключевое звено метаболического синдрома. Ожирение и метаболизм 2004; 1: 10-16].

Semizlik ta`rifi ko'pincha tana vazni indeksi (TVI)ga asoslanadi (ya'ni tana vazni (kg)) bo`y uzunligining kvadratiga bo'linadi [metrda]. Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JST) tomonidan belgilangan 18,5-25 kg / m² oralig'ida TVI normal hisoblanadi, 25-30 kg / m² oralig'idagi TVI ortiqcha vazni, TVI > 30 kg / m² semizlik hisoblanadi. TVI ni hisoblash juda oson bo'lishiga qaramay, ushbu ko'rsatkich yog' massasining tarqalish xususiyatini baholashga imkon bermaydi. Shunday qilib, mushaklari yaxshi rivojlangan yoki asosan teri osti yog' taqsimotiga ega bo'lgan odamlarda TVI asosan abdominal (vistseral) semizligi bo'lgan odamlarda bo'lgani kabi bo'lishi mumkin. Visseral semizlikda yuqori TVI metabolik va yurak qon-tomir tizimida o`zgarishlar xavfi bilan bog'liq. Ortiqcha visseral yog'ni aniqroq tavsiflaydigan alternativ ko`rsatkichlar bel aylanasi va bel aylanasining (Bel aylanasi / Bo`ksa aylanasi) bo`ksa aylanasiga nisbati: 102 sm va > 0,9 erkaklarda; > 88 sm va > 0,8 ayollarda mos ravishda. SBK larida semizlikni to'g'ri tasniflash uchunbel aylanasi mezoni TVI mezonidan ko`ra ustunroq ekanligi aniqlandi. [Нефрология. 2017. Том 21. №2 «Ожирение и заболевания почек: Скрытые последствия эпидемии» Чаба П. Ковесди., Сьюзан Фурс., Кармин Зокали., Стр 11]

Albinuriya (AU) ishonchli tarzda buyrak shikastlanishining ilk belgilaridan biri sifatida tan olingan va xavf past bo'lgan bemorlarda o'limning ko'payishi bilan bog'liq. Rossiya Kardiologlar Jamiyatining 2013 yilgi milliy ko'rsatmalariga muvofiq: "Yurak-qon tomir xavfi va surunkali buyrak kasalliklari: kardionefroproteksiya strategiyasi", KFT (CKD-EPI formulasi bo'yicha) va AU bu SBK tashxisini tasdiqlash uchun eng muhim belgilar bo'lib, yurak qon-tomir tizimi kasalliklari standart tekshiruv doirasiga kiritilishi kerak. [Сборник тезисов V юбилейного Евразийского конгресса кардиологов Book of Abstracts of the V Eurasian Congress of Cardiologists «Альбуминурия как важный маркер в

диагностике хронической болезни почек: Возможности использования в стационаре»2014 г. стр 52.]

SBK diagnostik mezonlari [KDIGO 2012 Clinical Practice Guideline for the Evaluation and Management of Chronic Kidney Disease. Kidney Int. Supplement 2013; 3:1–150.]

| | |
|---|---|
| Buyrak zararlanishi markyorlari (bitta yoki ko'proq) | Albuminuriya (albuminning siydi bilan ajralib chiqish darajasi ≥ 30 mg / 24 soat, siydi kning A / Kr nisbati ≥ 30 mg / g (≥ 3 mg / mmol)) Siydik cho'kmasi o'zgarishi Naychali patologiyada elektrolit va boshqa buzilishlar Gistologik o'zgarishlar Vizual tekshiruv paytida struktur o'zgarishlar tadqiqot usullari Anamnezda buyrak transplantatsiyasi KFT kamayishi KFT <60 ml / min / 1.73 m^2 (KFT toifalari 3a-5) |
| KFT kamayishi | KFT <60 ml / min / 1.73 m^2 (KFT toifalari 3a-5) |
| Izoh: * - agar ular 3 oydan ortiq saqlansa. | Qisqartmalar: KFT – koptokchalar filtratsiya tezligi, A / Kr - albumin / kreatinin nisbati. |

1.2. BUYRAK FAOLIYATINI BAHOLASH.

Qon zardobidagi kreatinin (Kr) kontsentratsiyasini aniqlash muhim hisoblanadi, ammo buyrak faoliyatini - ko'plab omillarga (ishlab chiqarish, sekretsiya, buyrakdan tashqari ekskretsiya) bog'liqligi sababli baholash uchun

yeterlicha informativ usul emas. Faqat 60% bemorlarda KFT pasayishi qon zardobida kreatinin miqdori ko'tarilishi bilan boradi (ya'ni, KFT pasayganlarning 40 foizida zardobdagi Kr darajasi normada bo`ladi). Buyraklarning funksional holatini aks ettiruvchi eng aniq ko'rsatkichlardan biri bu KFT bo'lib, uni endogen (inulin) va ekzogen filtratsiya markerlari yordamida o'lchash mumkin, bu endogen (Cr) filtratsiya markerlarining klirensi yoki zardobdagi endogen markerlar (Cr, Sistatin C) darajasiga asoslangan formulalar yordamida hisoblanadi. Inulin klirensi KFT ni o'lchash uchun oltin standartdir, ammo uni aniqlash, ekzogen radioaktiv yorliqlarning klirensini aniqlash kabi qimmatga tushadi va odatiy amaliyotda ularga erishish qiyin. KFT ni baholashning bir qator alternativ usullari ishlab chiqilgan [*Функциональное состояние почек и прогнозирование сердечно-сосудистого риска. Рекомендации ВНОК и НОНР. Кардиоваскулярная терапия и профилактика. 2008; 7 (6)*].

Ko'p sonli populyatsion tadqiqotlarda semizlik va SBK rivojlanishi va progressiyalanishi o'rtasida assotsiatsiya aniqlandi.

Buyrak kasalligi bo'limgan odamlarda TVI ning oshishi proteinuriya assotsiatsiyalanadi. [*Foster MC, Hwang SJ, Larson MG et al. Overweight, obesity, and the development of stage 3 CKD: the Framingham Heart Study. Am J Kidney Dis 2008; 52:39-48*] Ko'p sonli keng miqyosli tadqiqotlar natijalariga ko'ra, TVI ning yuqori ko'rsatkichlari KFT ning kamayishi yoki rKFT ning tez fursatda pasayishi [*Lu JL, Molnar MZ, Naseer A et al. Association of age and BMI with kidney function and mortality: a cohort study. Lancet Diabetes Endocrinol 2015;3:704-714*] va terminal buyrak yetishmovchiligi rivojlanishi bilan bog'liq [*Vivante A, Golan E, Tzur D et al. Body mass index in 1.2 million adolescents and risk for end-stage renal disease. Arch Intern Med 2012; 172:1644-1650*]. SBK mavjud bo'lgan bemorlarda TVI ning oshishi, semizlikning II va undan yuqori darajasi SBK ning tezroq progressivlanishiga olib keladi. [*Lu JL, Kalantar-Zadeh K, Ma JZ et al. Association of body mass index with outcomes in patients with CKD. J Am Soc Nephrol 2014; 25:2088-2096*]. SBK va

abdominal semizlik (Bel aylanasi va bel aylanasi / bo`ksa aylanasi nisbati bilan tashxis qo'yilgan) o'rtasidagi bog`liqlikni baholaydigan bir qator tadqiqotlar yuqori bel va bo`ksa aylanasi o`lchamlari va albuminuriya [Thoenes M, Reil JC, Khan BV et al. *Abdominal obesity is associated with microalbuminuria and an elevated cardiovascular risk profile in patients with hypertension*. *Vasc Health Risk Manag* 2009;5:577-585], KFT ning pasayishi va terminal buyrak yetishmovchiligining [Kramer H, Gutierrez OM, Judd SE et al. *Waist Circumference, Body Mass Index, and ESRD in the REGARDS (Reasons for Geographic and Racial Differences in Stroke) Study*. *Am J Kidney Dis* 2016; 67:62-69] rivojlanishi o'rtasida TVI darajasidan qat'iy nazar bog'liqlik borligini tavsiflaydi. Erkaklarda albuminuriya rivojlanishi komputer tomografiya yordamida o'lchanadigan visseral yog' to'qimalari miqdorining ko`payishi bilan bog'liq [Foster MC, Hwang SJ, Massaro JM et al. *Association of subcutaneous and visceral adiposity with albuminuria: the Framingham Heart Study*. *Obesity (Silver Spring)* 2011; 19:1284-1289]. Terminal buyrak yetishmovchiligi bilan vafot etgan bemorlar [Postorino M, Marino C, Tripepi G et al. *Abdominal obesity and all-cause and cardiovascular mortality in end-stage renal disease*. *J Am Coll Cardiol* 2009; 53:1265-1272] va buyrak transplantatsiyasi retsipyentlari o`rganilganda [Kovesdy CP, Czira ME, Rudas A et al. *Body mass index, waist circumference and mortality in kidney transplant recipients*. *Am J Transplant* 2010; 10:2644-2651] TVI o`lchamidan qat'iy nazar abdominal semizlik va buyrak kasalliklarining yomon oqibatlari o'rtasida aloqadorlik borligi aniqlangan. Ushbu ma'lumotlar vistserial yog' to'qimalarining buyraklarga bevosita ta'siri borligini ko'rsatadi.

Arterial gipertenziya (AG) - kattalar populyatsiyasida eng ko'p uchraydigan kasallikdir. Kasallikning boshlanishi bilan patologik jarayonga hayotiy muhim organlar - yurak, qon tomirlar, buyraklar, miya ham jalg qilinadi. Bunda klinik belgilar nishon-a`zolarda chuqr o`zgarishlar bo`lgandan keyin namoyon bo`ladi. [2013 ESH/ESC: guidelines for the management of arterial hypertension:

the Task Force for the Management of Arterial Hypertension of the European Society of Hypertension (ESH) and of the European Society of Cardiology (ESC) // Eur. Heart J. – 2013. – Vol. 34. – P.2159–219].

Arterial gipertenziyaning dastlabki bosqichlarida buyrakda faqat gemodinamik qayta qurilish sodir bo'ladi, bu uzoq vaqt davomida buyrakning funktsiyasida aks etmasligi va struktur o'zgarishlarsiz kechishi mumkin. Buyraklar, bir tomonidan, gipertenziyadagi nishon organ bo`lsa, ikkinchi tomonidan, arterial gipertenziya rivojlanishida ishtirok etadi. [*K/DOQI: Clinical Practical Guidelines for Chronic Kidney Disease: Assessment, Classification and Stratification*].

Arterial gipertenziyada buyrak shikastlanishi gipertenziv nefropatiya va surunkali buyrak kasalliklari paydo bo`lishi bilan namoyon bo'ladi. [*Chronic kidney disease: a methodical guide for doctors. Shilov E.M., Shvetsov M.Yu., Bobkova I.Y., Moskva Moscow. 2012; 83 p.*]

Buyraklarning patologik jarayonga jalb qilinganligining dastlabki belgisi - bu albuminuriya, kechki - proteinuriya. O'rta yoshdagagi AG bo'lgan bemorlarda buyrak shikastlanishining rivojlanishi qiziqish uyg'otadi, chunki dastlab yurak-qon tomir tizimi kasalliklari va shunga mos ravishda nishon organlar zararlanish ehtimoli kamroq. [*Li W, Gu H, Teo K, et al. Hypertension prevalence, awareness, treatment, and control in 115 rural and urban communities involving 47 000 people from China. J Hypertens. 2016; 34: P. 39-46.*]

Semizlik, dislipidemiya va arterial gipertenziya albuminuriya / proteinuriya bilan namoyon bo'ladigan buyrak disfunktsiyasining shakllanishiga ta'sir qiladi. Gipertenziya davomiyligi 10 yildan ortiq, 67% hollarda gipertenziv nefropatiya va surunkali buyrak kasalligi aniqlangan. AG davomiyligi 10 yildan ortiq bo'lganda gipertenziv nefropatiyani rivojlanish xavfi 5 yildan kam bo'lgan AG davomiyligiga qaraganda 13 baravar yuqori.

2009 yilda KFT ni hisoblash uchun yangi CKD-EPI formulasi taklif qilindi, unda MDRD formulasidagi kabi parametrlardan (elementar demografik ma'lumotlar - jins, yosh, irq, zardobdagi Kr) foydalilanadi [*Levey A. S., Stevens L.*

A., Schmid C. H. et al. A new equation to estimate glomerular filtration rate. *Ann Intern Med* 2009; 150:604–12.J. KFTni ushbu formuladan foydalanib hisoblash buyraklarning funktsional qobiliyati saqlanib qolganda ham aniqroq natijalarini beradi, shu jumladan ^{99}mTc -DTPA klirensini baholashda olingan ma'lumotlar bilan solishtirish mumkin. Formula 8254 bemorni o'z ichiga olgan ma'lumotlar bazasi asosida ishlab chiqilgan. Uning aniqligi AQSh va Evropadan 4014 bemorda va Xitoy, Yaponiya va Janubiy Afrikadan (yaponiyaliklar va janubiy afrikaliklar uchun bu ahamiyatli ma'lumotlar berdi) 1022 bemorda sinovdan o'tkazildi. Ushbu formula bugungi kunda ishlatiladigan eng universal va aniq formuladir. SBK tashxisi va tasnifi bo'yicha zamonaviy tavsiyalarga muvofiq, CKD-EPI formulasi bo'yicha KFT hisoblash zarur [National guidelines. Chronic kidney disease: basic positions, definition, diagnostics, screening, approaches to prevention and treatment. Project. 09.10.2011]. Ko'rsatkich avtomatik ravishda hisoblab chiqilishi va laboratoriya hisobotida ko'rsatilishi mumkin. Kerakli formulalar shakli bemorning irqi, jinsi va zardobdagi Kr darajasiga qarab tanlanadi, bu turli yoshdag'i va jinsdag'i odamlarning mushak massasidagi farqlarni va SBK ning kechki bosqichlarida naychali kreatinin sekretsiyasini faollashtirish bilan bog'liq bo'lgan xatoni bartaraf etishga yordam beradi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, gipertenziyadagi buyrak shikastlanishi nafaqat yurak-qon tomir tizimi, balki semizlik, shuningdek, qon bosimining o'rtacha darajasidan qat'i nazar, o'lim xavfi oshishi bilan o`zaro aloqador.

Shubhasiz, bugungi kunda buyrak funksiyasi buzilishida turli xil patologiyalarning rolini o'rganish uchun prognostik klinik tadqiqotlar o'tkazishga zarurat tug`ildi. Shu bilan birga, hozirgi paytda buyrak zararlanishini baholash uchun tana massasi indeksining ahamiyati to`grisida savolga javob topilmagan.

II BOB. BUYRAK ZARARLANISHI DIAGNOSTIK BIOMARKYORLARINI O`RGANISH BO`YICHA TADQIQOT HAJMI VA DIZAYNI. MATERIALLAR VA USULLAR

§ 2.1. Tadqiqot dizaynni

Ushbu ilmiy tadqiqotni amalga oshirish 3 bosqichda amalga oshirildi:

- 1 – bosqich. Tadqiqot ob'ektini tanlash, tadqiqot hajmi va kontingentini aniqlash, reprezentativ guruhlarga taqsimlash, randomizatsiyalangan tekshirishlarni tashkil qilish.
- 2 – bosqich. Maxsus ishlab chiqilgan "Surunkali buyrak kasalligi rivojlanish xavfini aniqlash uchun so'rovnama" dan foydalanib tanlangan ob'ektlarda skrining tekshiruvlarini o'tkazish.
- 3 – bosqich. Bemorlarni chuqur klinik, instrumental va laboratoriya tekshiruvlaridan o'tkazish. Ortiqcha tana vazni va semizligi bo`lgan arterial gipertenziyalni bemorlarda surunkali buyrak kasalliklari rivojlanishi bo`yicha tadqiqot materiallariga statistik ishlov berish, materiallarni qiyosiy tahlil qilish.

§ 2.2. Tadqiqot materiallari

Tadqiqotga 87 nafar 35 yoshdan yuqori bo`lgan bemorlar kiritildi. Bemorlar Buxoro viloyati ko`p tarmoqli tibbiyot markazi (BVKTTM), "Ulug'bek ultra med" xususiy klinikasi va BVKTTM maslahat va diagnostika poliklinikasiga murojaat qilgan bemorlar orasidan tanlandi.

Tadqiqotga kiritish mezonlari: yoshi 35 yoshdan 65 yoshgacha, shundan 39 ta erkak (44,8%), 48 ta ayol (54,2%). Bemorlarning o'rtacha yoshi $49,2 \pm 12,2$ edi, shundan erkaklar $46,3 \pm 13,4$ yosh, ayollar $55,2 \pm 8,9$ yoshni tashkil etdi;

Gipertoniya kasalligi I-III bosqichida statsionarga yotqizilgan bemorlar; Bemorlarga ishning strukturasi, maqsadi, vazifalari, diagnostik tekshiruv zaruriyatini to`g`risida axborot berildi va ularidan tadqiqotda ishtirok etish uchun roziligi

to`grisida yozma tasdiqlab olindi. Tadqiqot Rossiya Federatsiyasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2003-yil 19-iyundagi 266-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan Butunjahon shifokorlar uyushmasi «Надлежащей клинической практики» (Good Clinical Practice) Xelsinki deklaratsiyasi standartlariga muvofiq olib borildi.

Tadqiqotda ishtirok etgan barcha bemorlar fizikal, klinik-instrumental va laboratoriya tekshiruvlaridan o'tkazildi. 87 nafar bemorning barchasi shikoyatlar va anamnez yig`ish, fizikal tekshiruv, antropometriya, qon va siyidik umumiylahlili, qon biokimiyoviy tahlili (qondagi kreatinin darajasi), qon bosimini o`lchash, qon bosimini sutkalik monitoringi (Sistolik qon bosimi), elektrokardiografiya (EKG), Exo-KG (buyraklar funksiyasini baholash) kabilarni o`z ichiga olgan klinik, laborator va instrumental tekshiruvlardan o'tkazildi.

§ 2.3. Tadqiqot usullari

Umumiylahlili klinik tekshiruv: Terapevtik bemorlarni an'anaviy klinik tekshiruvlardan o'tkazildi. Antropometrik ko'rsatkichlar baholandи: bo`y uzunligi, og'irlilik, bel aylanasi, bo`ksa aylanasi, Kettle formulasi bo`yicha TVI: $TVI \text{ (kg / m}^2\text{)} = \text{og'irlilik (kg) / bo`y uzunligi (m}^2\text{)}$ (2.1-jadval).

2.1-jadval.

TVIga ko`ra Semizlik tasnifi (JSST, 1997)

| | |
|--|--|
| TVI tana massasining turlari, kg / m ² | Yondosh kasalliklarning rivojlanish xavfi |
| Tana massasi defitsiti <18.5 | Kam (xavf yuqori) |
| Normal tana vazni 18,5- 24,9 | Odatiy |
| Ortiqcha tana vazni 25,0- 29,9 | Baland |

| | |
|--------------------------------|-------------------|
| I darajali semizlik 30.0-34.9 | Yuqori |
| II darajali semizlik 35.0-39.9 | Juda yuqori |
| III darajali semizlik > 40 | Favqulodda yuqori |

Qon bosimi (QB) ertalab, bemorning o'tirgan holatida kamida 3 marta o'lchanib, o'rtacha sistolik qon bosimi va diastolik qon bosimi aniqlandi. Arterial gipertenziya mezonlari sistolik qon bosimi ≥ 140 mm simob ustuni deb hisoblandi va diastolik qon bosimi ≥ 90 mm simob ustuni yoki gipertenziyv dorilarni qabul qilganda normal qon bosimi. Arterial gipertoniyaning og'irligi VNOK tavsiyalariga muvofiq gipertoniya tasnifiga ko'ra aniqlandi:

Gipertoniyaning 1-darajasi - 130-159 va / yoki 80-100 mm simob ustuni

2 daraja - 160-180 va / yoki 100-109 mm simob ustuni

3 daraja - 180 va / yoki 100 mm simob ustuni va yuqori.

Ultratovush tekshiruvi: Barcha tekshirilgan bemorlarda sensor chastotasi 3,5 MGts bo'lgan ToshibaSSA-340 (Yaponiya) ning maxsus uskunasi yordamida buyraklarning ultratovush tekshiruvi (UTT) o'tkazildi.

Ultratovush tekshiruvining maqsadi buyraklarning joylashishini va ularning harakatchanligini, shakli, konturlari, chiziqli va hajmli parametrlarini aniqlash; tasvirning ravshanligini, tolali kapsula va yog' to'qimalarining qalinligini aniqlash; parenximaning holati - qalinligi, zichligi, parenximasi va buyrak sinusi kortikal, medullar qatlamlarining farqlashning aniqligi; qorin bo'shlig'i tizimining holati - kengayish yoki deformatsiya, kengayish darjasni, yuqori, o'rta va pastki guruh jomchalar devorining qalinligi; xususiy tomirlar, asosiy retroperitoneal, qo'shni organlar - buyrak usti bezlari, siydik yo'llari va siydik pufagi paranefral to'qimalarini aniqlash.

Buyrakning asosiy biometrik ko'rsatkichlari normaldir - buyrakning uzunligi (sm): o'ng - 10,9 (9.8-12.2), chap - 11.2 (10.1-12.3).

Kattalashishi patologik hisoblanadi:

uzunligi 12,5 sm dan oshishi yoki qisqarishi - 9 sm dan kam;

buyrakning kengligi (sm): o'ng - 5,7 (5.1-6.4), chap - 5,8 (5.1-6.5);

buyrakning qalinligi (sm): o'ng - 4,3, chap - 4,6 sm;

kortikomedullar qatlamining kengligi / qaliligi nisbati 0,8-1,6 ga teng.

buyrak hajmi (sm^3): o'ngda - 134, chapda - 146. Erkaklarda buyraklar hajmi ayollarga qaraganda katta (farq ishonchli).

buyrak sinusining hajmi - o'ng - 21 sm³, chap - 24 sm³.

Gemostazning asosiy parametrlarini aniqlash

"Human Clot Junior" koagulometr apparatidan foydalanildi, "Human Gesellschaft Biochemica und Diagnostica" kompaniyasi (Visbaden, Germaniya). Qon ivishi fibrin strukturasi bilan so'nggi nuqta usuli yordamida tekshirildi. Quyidagi testlar o'tkazildi: PV (protrombin vaqt) - sekundlarda ifodalanadi, % ga aylantirilishi mumkin va MNO hisoblash usuli bilan aniqlanadi; ACHTV (Tromboplastinning qisman faollashtirilgan vaqt) - sekundlarda ifodalanadi; Fibrinogen - sekundlarda ifodalanib, mg/dl kontsentratsiyada periferik qon plazmasida avtomatik ravishda aylanadi.

Gematologik parametrlarni aniqlash.

Periferik qon parametrlarini aniqlash uchun MindrayCo.Ltd (Xitoy) tomonidan ishlab chiqarilgan BC-5800 avtomatik gematologik analizatoridan foydalanildi, 29 parametr + 2 histogramma + 2 skatogramma, 5 parametr bo'yicha leykotsitlarni aniqlash imkoniga ega. U hujayralarni sanash uchun Kolter usulini qo'llaydi va qizil qon tanachalarida gemoglobin miqdorini o'lchaydi. Ushbu analizator yordamida quyidagi gematologik parametrlar aniqlanadi: WBC - oq qon hujayralari soni; LYM - bu limfotsitlar soni; MON - bu monotsitlar soni; GRA - granulotsitlar soni; GRA% - granulotsitlar foizi; LYM% - limfotsitlarning

foizi; MON% - bu monotsitlarning foizi; HGB - gemoglobin; RBC - eritrositlar soni; HCT - gematokrit; PLT- bu trombotsitlar soni.

Biokimyoviy parametrlarni aniqlash.

Buning uchun MINDRAY (Xitoy) firmasidan olingan BC-200 avtomatik biokimyoviy analizatoridan foydalanildi. ALAT (Alanine Aminotransferase) IFCC (International Federationof Clinical Chemistry) ekspertlari ma'lumotlariga ko'ra kinetik usul yordamida faollashgan ALAT piridoksal fosfat aktivlanmasdan aniqlandi. (Test Human Gesells chaftini) Biochemica und Diagnostica", Visbaden, Germaniya).

ASAT (Aspartate Aminotransferase), ham IFCC (International Federationof Clinical Chemistry) ekspertlari ma'lumotlariga ko'ra kinetik usul yordamida faollashgan ASAT piridoksal fosfat aktivlanmasdan aniqlandi. (Test Human Gesells chaftini) Biochemica und Diagnostica", Visbaden, Germaniya).

